

XALQARO HUQUQDA NIZOLARNI TINCH YO'L BILAN HAL QILISH PRINSIPINING AHAMIYATI

Gulnoza Muxiddinova

gulnozamuxiddinova9@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs B potok talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi nizolarni tinch yo'llar bilan hal qilish mexanizmlarini tahlil qiladi. Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish nafaqat huquqiy majburiyat, balki xalqaro tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish uchun amaliy zarurat hamdir. Mavjud mexanizmlarni chuqur tushunish va ularni takomillashtirish, xalqaro hamjamiyat mojarolarni samarali boshqarishi va yanada tinch dunyoni shakllantirishga hissa qo'sha oladi. Ushbu tadqiqot BMT Nizomini VI bobiga asoslanib, nizolarni hal qilishda muzokaralar, vositachilik, kelishuv, arbitraj, sud va tergov kabi usullarni ko'rib chiqadi. Shuningdek, maqolada mazkur usullarning samaradorligi, afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, zamonaviy siyosiy va huquqiy muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xalqaro nizolar, BMT Nizomi, muzokaralar, vositachilik, kelishuv, arbitraj, Xalqaro Sud (ICJ), mintaqaviy tashkilotlar, xalqaro huquq, suverenitet, kiber nizolar, xalqaro munosabatlar, global barqarorlik.

KIRISH

Xalqaro huquq bu davlatlar, xalqaro tashkilotlar va boshqa xalqaro subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar, tamoyillar va normalar majmuasidir. U tinchlik, xavfsizlik, suverenitet, inson huquqlari, savdo, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi sohalarini qamrab oladi. Zamonaviy globallashtirish sharoitida xalqaro huquqning ahamiyati tobora ortib bormoqda, chunki u tinchlikni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish va davlatlararo hamkorlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu sohaning poydevorini xalqaro huquqning asosiy prinsiplari — suveren tenglik, kuch ishlatmaslik, chegaralarning daxlsizligi, ichki ishlarga aralashmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish kabi tamoyillar tashkil etadi. Aynan shu prinsiplarga amal qilish orqali xalqaro tartib va barqarorlik ta'minlanadi. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari - xalqaro munosabatlar subyektlarining xalqaro hayotdagi to'plangan eng muhim masalalarga oid ifodalangan hamda umumlashtirilgan, umume'tirof etilgan yurish-turish normalaridir. Hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy prinsiplari — ommaviy xalqaro huquqning asos qoidalari va holatlari tizimi bo'lib, xalqaro munosabatlarning barcha sohalarida davlatlar va boshqa sub'ektlarning

xatti-harakatlarini umumiy ko'rinishda tartibga soladi, ular imperativ xususiyatga ega bo'lib, xalqaro huquqning mazmuni va maqsadga yo'naltirilganligini belgilab beradi¹.

BMT Nizomining 2-moddasi bilan mustahkamlangan Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyada **yettita asosiy prinsip** deb e'lon qilingan. Vaholanki, 1975-yilda yana **uchta asosiy prinsiplar** qo'shilgani qayd etilgan. Ushbu qo'shilgan prinsiplarni hisobga olgan holda xalqaro huquqning 10 ta prinsiplarini asosiy deb hisoblasa bo'ladi.

Bular:

1. Davlatlarning suveren tegligi;
2. Kuch bilan tahdid qilish va uni xalqaro munosabatlarda qo'llashdan o'zini tiyish;
3. Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
4. Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
5. Tashqi sohada davlatlar hamkorligining majburiyligi;
6. Xalqlarning o'zini o'zi anglashi va teng huquqliligi prinsipi;
7. Davlat chegaralarining mustahkamligi;
8. Davlatlarning hududiy daxlsizligi;
9. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish;
10. Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish;

Ushbu prinsiplarni qo'llash sohasi bo'yicha universal hisoblanadi va imperativ norma deb e'tirof etiladi². Shuni alohida ta'kidlash kerakki, asosiy prinsiplar nafaqat xalqaro huquq tizimiga boshchilik qiladi, balki davlatlarning konstitutsiya normalariga kiritilishi barobarida milliy huquqiy tizim normalariga ham o'z ta'sirini o'tkazib (1947-yilgi Italiya Konstitutsiyasi 10-modda, 1978-yilgi Ispaniya Konstitutsiyasi III bobi, 1975-yilgi Gretsiya Konstitutsiyasi), huquqiy tizmlarning o'zaro aloqasini yaqqol namoyon qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida belgilanganidek, O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi³.

Xalqaro huquqning asosiy vazifalaridan biri — davlatlar o'rtasidagi nizolarni urush va kuch ishlatmasdan, tinch yo'l bilan hal qilishga ko'maklashishdir. Tinchlikni saqlash, insoniyatni halokatli mojarolardan asrash, davlatlar o'rtasidagi ishonch va

¹ Очиллов Б.Э., Одиловориев Х.Т. Ҳозирги замон халқаро оммавий ҳуқуқи: Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган нашр. Латин алифбосида. — Тошкент: Алишер Навоий номи Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат юридик институти, 2007.

² https://untreaty.un.org/ilc/texts/instruments/english/commentaries/7_1_1950.pdf

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023-yil, 10-bet

hamkorlikni mustahkamlash xalqaro huquqning asosiy vazifasidir. Shu sababli, “nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish prinsipi” xalqaro huquqning eng muhim, fundamental tamoyillaridan biri hisoblanadi. **1970-yilgi Xalqaro to‘qnashuvlarni tinch yo‘l bilan hal etish to‘g‘risidagi Konvensiyada**⁴ davlatlarni “kuch ishlatishga murojaat qilishni imkon qadar oldini olish”ga (1-modda) hamda “qurol ishlatishdan oldin avvalo mavjud imkoniyatlar asosida tinchlikka va murosaga chaqirish” (2-modda) ta’kidlanadi. Shu bilan birgalikda, **Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining** 2-moddasi 3-bandida shunday deyiladi:

Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish xalqaro ommaviy huquqning asosiy tamoyillariga — davlat suvereniteti, ichki ishlariga aralashmaslik, va kuch ishlatishni taqiqlash prinsiplari asoslanadi. Ushbu yondashuv Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida hamda Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga oid **Gaaga konvensiyalarida** o‘z ifodasini topgan.

BMT Ustavi 2-moddasining 3-bandiga muvofiq, «BMTning barcha a'zolari o‘z xalqaro nizolarini xalqaro tinchlik, xavfsizlik hamda adolatga xavf solmaydigan holda tinch vositalar bilan hal qiladilar».

Bu prinsipning rivojlanishi quyidagicha: xalqaro shartnomalar va munosabatlarni ishlab chiqarib, davlatlar urushdan foydalanish huquqini cheklashdan asta-sekin xalqaro nizolarni hal qilishning tinch vositalarini rivojlantirish va davlatlarning bunday tinch vositalardan foydalanish majburiyatini belgilash tomon bordilar.

Ilgari, 1907 yilgi Xalqaro to‘qnashuvlarni tinch yo‘l bilan hal qilish to‘g‘risidagi konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq, urushdan foydalanish man qilinmas («qurol qo‘llashdan avval»), tinch vositalardan foydalanish majburiy emas («sharoit taqozo etgunicha bu vositalardan foydalanish mumkin»), tinch vositalarning juda tor doirasi (beminnat xizmatlar va vositachilik) tavsiya qilinardi. BMT Ustavining 33-moddasi nizoda ishtirok etayotgan tomonlar «avvalambor, nizoni muzokaralar, tekshiruv, vositachilik, arbitrajni qo‘llash, mintaqaviy organlar yoki bitimlarga murojaat qilish yoxud o‘z tanloviga ko‘ra boshqa tinch vositalar bilan hal etishga harakat qilishlari shart» deb belgilaydi.

BMT Ustavi 1-moddasining 1-bandida xalqaro nizolar «adolat va xalqaro huquq prinsiplariga muvofiq hal qilinishi zarur», deb yozilgan. Ko‘plab davlatlarning fikricha, adolatlilikka havolalar tinch vositalar yordamida har qanday xalqaro nizolarni hal qilish uchun majburiylikni ta’kidlaydi. Nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish prinsipining tahlili (EXHT Yakunlovchi akti, 1970 yilgi Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi Deklarasiyada qayd etilgan) shuni ko‘rsatdiki, BMT Ustavini rivojlantiradigan va to‘ldiradigan hamda bir qator davlatlar bekor qilishni xohlagan bir qator qoidalarni saqlab qolishga erishildi. Jumladan:

⁴ <https://rm.coe.int/1680064586>

- davlatlarning «qisqa muddatda xalqaro huquqqa asoslangan adolatli qarorga kelish uchun barcha choralarni ko‘rish» majburiyatini;
- nizo hal qilinmayotgan hollarda «nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishning o‘zaro kelishilgan yo‘llarini izlashni davom ettirish» majburiyatini;
- «xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashga tahdid tug‘iladigan va shu bilan nizoni tinch hal qilishni yanada og‘irlashtiradigan har qanday harakatlardan o‘zini tiyish»ni va boshqalar.

Nizoni tinch yo‘l bilan hal qilish prinsipining normalari keyingi yillarda chuqur tahlil mavzuiga aylandi. Shular jumlasidan:

1. La-Valetta (Malta, 1997 yil)dagi nizolarni tinch yo‘llar bilan hal qilish bo‘yicha EXHT ekspertlarining yig‘ilishida, xalqaro nizolarni tinch hal qilishning jamoatchilik tizimi o‘lchamlari tavsiya qilindi.

2. EXHT majlisining yakuniy hujjatida Evropada maxsus organ – «Nizolarni hal qilish bo‘yicha EXHT mexanizmi»ni yaratish nazarda tutilgan bo‘lib, u nizolashayotgan har qanday tomonning talabi bo‘yicha qo‘llanilishi mumkin va yarashtiruvchi organ sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Umuman olganda, quyidagilar ko‘rinib turibiki, xalqaro nizolarni hal qilishda tinch vositalar va usullarning salmog‘i ortib bormoqda hamda davlatlar prinsipning normativ mazmunini muntazam ravishda amaliyot va hayot talablariga moslashtirib bormoqdalar⁵.

Xalqaro huquqning tinchlikni saqlashga bag‘ishlangan ushbu prinsipi quyidagi hujjatlarda mustahkamlangan:

- Xalqaro huquqning prinsiplari to‘g‘risidagi Deklaratsiya;
- 1975-yilgi Yakuniy hujjat;
- BMT Bosh Assambleyasining qator rezolyutsiyalari (1982-yilgi xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish to‘g‘risidagi Manila Deklaratsiyasi);
- Arab davlatlar ligasi Pakti (V modda);
- Amerika davlatlari tashkiloti Nizomi (V bob);
- Afrika Kengashining ta‘sis akti (4-moddasi);
- MDH Nizomi (IV bo‘limi).

“BMTning barcha a‘zolari o‘zlarining xalqaro miqyosdagi nizolarini tinch yo‘l bilan hal qilish va bunda xalqaro tinchlikka va xavfsizlikka hamda adolatga tahdid solmasligi lozim”⁶. Shuningdek, Nizomning 33-moddasida davlatlarga mojarolarni hal etishda quyidagi vositalardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Muzokaralar, nizolarni hal qilishning eng bevosita va moslashuvchan usuli bo‘lib, tomonlar o‘rtasida bevosita muloqot orqali o‘zaro ma‘qullangan kelishuvga

⁵ Очиллов Б.Э., Одилокorieв Х.Т. Ҳозирги замон халқаро оммавий ҳуқуқи: Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган нашр. Лотин алифбосида. – Тошкент: Алишер Навоий номли Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат юридик институти, 2007.

⁶ <https://www.un.org/en/about-us/un-charter/full-text>

erishishni nazarda tutadi. Ko'pincha bu nizoni hal qilishdagi birinchi qadam bo'lib, uchinchi tomon yordamisiz yoki yordam bilan olib borilishi mumkin.

Muzokarada tomonlar o'z manfaatlarini aniqlab, turli variantlarni ko'rib chiqib, yechim topishga harakat qiladi. Bu jarayon asosan diplomatiya, muloqot va tomonlarning kelishuvga tayyorligi asosida amalga oshadi.

Misol sifatida aytadigan bo'lsak, Camp David kelishuvlari (1978): AQSh vositachiligida Misr va Isroil o'rtasida muzokaralar olib borilib, Misr-Isroil tinchlik shartnomasiga zamin yaratildi⁷.

2. Vositachilik (mediatsiya) da nizoni hal qilish uchun uchinchi, neytral tomon — vositachi ishtirok etadi. Vositachi tomonlarga ixtiyoriy kelishuvga erishishda yordam beradi, lekin qaror qabul qilishni majburlamaydi. Vositachilar odatda nizolarni hal qilish bo'yicha malakali shaxslar yoki xalqaro tashkilot vakillari bo'lib, konstruktiv muloqotni rag'batlantirish va tomonlarni o'zaro kelishuvga yetaklash vazifasini bajaradi. Misol uchun, Oslo kelishuvlari (1993): Norvegiya vositachiligida Isroil va Falastin Ozodlik Tashkiloti o'rtasida yashirin muzokaralar o'tkazilib, Oslo kelishuvlari imzolandi⁸.

3. Kelishish (konstsilyatsiya) — bu usulda kelishtiruvchi, shaxs yoki komissiya, nizoni o'rganib chiqib, yechim taklif etadi. Kelishtiruvchi mustaqil tekshiruv o'tkazib, tomonlarning fikrlarini tinglaydi va yechim takliflarini ishlab chiqadi. Tomonlar ushbu takliflarni qabul qilish yoki rad etishda erkin.

4. Arbitrajda nizolar bir yoki bir nechta arbitraj sudyalariga topshiriladi. Ular xalqaro huquq va taqdim etilgan dalillarga asoslanib, majburiy qaror chiqaradi. Shu bilan birgalikda arbitraj turlari haqida ham aytib o'tsam maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ad hoc arbitraj: Arbitraj muassasasi ishtirokisiz, tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida olib boriladi.

Asosiy arbitraj organlari: Doimiy arbitraj sud (PCA), Xalqaro investitsiyalar nizolarini hal qilish markazi (ICSID), Xalqaro savdo palatasi (ICC) kabi tashkilotlar xalqaro nizolar bo'yicha arbitraj xizmatlarini taqdim etadi. Misol sifatida, Janubiy Xitoy dengizi arbitraj ishi (2016): Filippin tomonidan Xitoyga nisbatan sudlangan va PCA tomonidan qaror chiqarilgan hududiy nizoga oid ish⁹.

5. Sud orqali hal etish doimiy xalqaro sud organlariga, xususan Xalqaro Sudga (ICJ) murojaat qilishni o'z ichiga oladi. ICJ xalqaro huquq asosida majburiy qaror chiqaradi.

ICJning roli: ICJ BMTning asosiy sud organi sifatida davlatlar o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqadi, shuningdek, maslahat beruvchi fikrlarni beradi. Tomonlar uning qarorlariga BMT Nizomi talablariga binoan rioya qilishlari shart.

⁷ <https://www.amerikaovozi.com/a/camp-david-accords/2488867.html>

⁸ <https://kun.uz/99313263>

⁹ <https://kun.uz/34755093?q=%2F34755093>

Jurisdiksiya va faoliyati: ICJning yurisdiksiyasi tomonlarning roziligi asosida belgilanadi (shartnomalar, deklaratsiyalar yoki maxsus kelishuvlar orqali). Sud hududiy nizolar, dengiz chegaralari, davlatlar mas'uliyati kabi masalalarni ko'rib chiqadi. Nikaragua – AQSh ishi (1986) bunga yaqqol misol bo'ladi: ICJ AQShning Nikaragua hududida kontrasiya qo'zg'olonchilarni qo'llab-quvvatlashi va portlarga mina qo'yishini xalqaro huquqni buzish deb topdi¹⁰.

6. Mintaqaviy tashkilotlar yordami bilan yoki boshqa tinch yo'llar bilan hal etishlari lozim.

Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish masalasi:

- BMT Nizomi (1945) – Xususan VI bob, mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish usullarini belgilab beradi.
- Gaaga Konvensiyalari (1899 va 1907) – Tinch yo'l bilan nizolarni hal etishning dastlabki mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlab bergan.
- Xalqaro sud (ICJ) nizomi – Davlatlar o'rtasidagi nizolarni sud tartibida hal qilish bo'yicha tartib-qoidalarni belgilaydi.
- Doimiy arbitraj sudi nizomi – Ixtiyoriy arbitraj tartibida nizolarni ko'rib chiqish bo'yicha xalqaro institut faoliyatini nazorat qiladi. Shuningdek, mintaqaviy tashkilotlar (masalan, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT), Afrika Ittifoqi, ASEAN va boshqalar) doirasidagi kelishuvlar ham ushbu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

Yaqinda davlatlarning keng koalitsiyasi xalqaro nizolarni hal qilishda tinch vositalarni faolroq qo'llash zarurligini ta'kidlab o'tdi. 2024-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan "Kelajak sammiti"da dunyo yetakchilari tomonidan qabul qilingan "Kelajak uchun pakt"ning 16-harakat bandi aynan shu yo'nalishni ilgari suradi. Unda BMT Nizomining VI bobida nazarda tutilgan vositalar — muzokara, vositachilik, kelishtirish, arbitraj va Xalqaro sud orqali huquqiy hal etish —ga siyosiy ko'mak ko'rsatish va yetarli resurslar ajratish zarurligi qayd etilgan¹¹.

1970-yil 24-oktabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan **“Davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar tamoyillari to'g'risidagi deklaratsiya”**da nizolarni kuch ishlatmasdan hal etish xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning asosiy sharti sifatida ko'rsatib o'tilgan¹². Tarixdan bizga ma'lumki, qurolli mojarolar millionlab insonlarning hayotiga zomin bo'lgan. Nizolarni hal qilishda kuch ishlatmaslik va tinch yo'lni tanlash xalqaro hamjamiyatga mojarolarni siyosiy-diplomatik yo'llar bilan tartibga solish imkonini beradi. Misol sifatida aytadigan bo'lsak, 1986-yilda Xalqaro sudda Nikaragua AQShga qarshi da'vo arizasi bilan chiqdi. Sud AQSh tomonidan Nikaraguada qurolli kuchlar va isyonchilarni

¹⁰ <https://www.icj-cij.org/node/103143>

¹¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/24/un-pact/>

¹² https://treaties.un.org/doc/source/docs/A_RES_2625-Eng.pdf

qo'llab-quvvatlash xalqaro huquqni buzganini e'tirof etdi. Bu sud qarori qurolli aralashuv o'rniga huquqiy hal etish zarurligini isbotladi¹³.

Tinch yo'l bilan hal qilish vositalari davlatlar o'z suvereniteti va teng huquqliligi asosida muzokaralar olib borishiga imkon yaratadi. Bu usul bilan hech bir tomon zo'ravonlik yoki tahdid ostida bo'lmaydi. Nizolarni sud orqali hal qilish huquq ustuvorligi tamoyilini kuchaytiradi. Bu orqali kichik va katta davlatlar o'z huquqlarini teng asosda himoya qilishlari mumkin. (Misol uchun, Filippin 2013-yilda Xitoyga nisbatan arbitraj sudiga murojaat qildi. 2016-yilda tribunal Xitoyning Janubiy Xitoy dengizidagi da'volarini xalqaro dengiz huquqi normalariga zid deb topdi)¹⁴.

Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish tamoyili xalqaro ommaviy huquqning poydevorlaridan biri bo'lib, global tinchlik va xavfsizlikni saqlab qolishga bo'lgan xalqaro majburiyatni aks ettiradi. Bugungi tobora o'zaro bog'liq va integratsiyalashgan dunyoda davlatlar o'rtasida nizo va mojarolar paydo bo'lish ehtimoli ham ortib bormoqda. Bunday sharoitda mojarolarni kuch ishlatmasdan hal qilish mexanizmlari har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro hamjamiyat tarixan mojarolarni zo'ravonliksiz hal etishning muhimligini tan olib kelgan. Bu yondashuv qadimiy diplomatik amaliyotlardan boshlab rivojlanib, yirik xalqaro shartnomalar va konvensiyalar orqali mustahkamlangan. Bu yo'ldagi muhim tarixiy bosqichlardan biri 1899-yilda "Doimiy arbitraj sudi (Permanent Court of Arbitration)ning tashkil etilishi va 1945-yilda Xalqaro sud (International Court of Justice – ICJ)ning tuzilishidir. Bugungi kunda ushbu institutlar, shuningdek, bir qator mintaqaviy mexanizmlar xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishda markaziy rol o'ynab kelmoqda.

XXI asrda xalqaro nizolar har doim ham an'anaviy qurolli mojarolar shaklida bo'lmaydi. Kiberxavfsizlik, atrof-muhit, internet boshqaruvi, sun'iy intellekt va transchegaraviy suv resurslari kabi sohalarda nizolar paydo bo'lmoqda. Bu yo'nalishlarda ham kuch ishlatish emas, balki huquqiy va diplomatik hal etish uslublari talab etiladi. (Kiberhujumlar bo'yicha davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar (masalan, AQSh va Rossiya o'rtasidagi ayblovlar) xalqaro diplomatik mexanizmlar orqali ko'rib chiqilmoqda.)

BMT Xavfsizlik Kengashining nizo va mojarolarni oldini olish borasidagi eng so'nggi rasmiy rezolyutsiyasi — **2014-yil 21-avgustda qabul qilingan 2171-sonli¹⁵ rezolyutsiya** bo'lib, unda Bosh kotibdan 2015-yil 31-avgustga qadar BMT tizimi doirasida **nizolarni oldini olish vositalarini targ'ib qilish va kuchaytirish** bo'yicha

¹³ <https://www.icj-cij.org/case/70>

¹⁴ _.

Очилов Б.Э., Одилқориев Х.Т. Ҳозирги замон халқаро оммавий ҳуқуқи: Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган нашр. Лотин алифбосида. — Тошкент: Алишер Навои номли Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат юридик институти, 2007.

¹⁵ <https://www.globalr2p.org/resources/resolution-2171-maintenance-of-international-peace-and-security-conflict-prevention-s-res-2171/>

ko'rilgan choralar to'g'risida Kengashga hisobot taqdim etish so'ralgan edi. Shundan buyon Bosh kotib asosan **maxsus siyosiy missiyalar** (Special Political Missions) va **ikki yilda bir marotaba taqdim etiladigan "Tinchlik o'rnatish va uni barqaror saqlash"** bo'yicha hisobotlar orqali Xavfsizlik Kengashini **BMTning oldini olish diplomatiyasi** (preventive diplomacy) bo'yicha faoliyati haqida xabardor qilib kelmoqda¹⁶.

Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish zamonaviy dunyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu usullar yordamida davlatlar o'rtasidagi nizo va kelishmovchiliklar kuch ishlatmasdan, huquqiy va diplomatik vositalar orqali bartaraf etiladi. Bunga muzokara, vositachilik (mediation), kelishuv, arbitraj, sud, tergov kabi mexanizmlar misol bo'la oladi. Ushbu usullar yillar davomida xalqaro huquq asosida shakllanib, nizo taraflariga do'stona va konstruktiv yondashuvni taklif qiladi. Biroq, bugungi kunda xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish mexanizmlari bir qator muammolarga duch kelmoqda. Xususan, siyosiy bosimlar, suverenitet bilan bog'liq xavotirlar, yirik davlatlarning bevosita yoki bilvosita aralashuvi, xalqaro sud va tashkilotlarning ba'zan resurs va vakolat jihatdan cheklanganligi bu tizimning samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, yangi turdagi nizolar — kiberxavfsizlik, ekologik muammolar, onlayn platformalardagi ziddiyatlar — mavjud an'anaviy mexanizmlarni yangilash va zamonaviylashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Shu bois, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchida, vositachilik mexanizmlarini rivojlantirish: Mintaqaviy va xalqaro vositachilik tashkilotlarini yaratish hamda ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali muzokaralar jarayoni samaraliroq bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, arbitraj va sud tizimini takomillashtirish: Sud qarorlarining ijrosini nazorat qilish, apellyatsiya mexanizmini yo'lga qo'yish va jarayonlarni shaffof qilish adolatga ishonchni oshiradi. Uchinchidan, innovatsion texnologiyalarni jalb qilish: Onlayn nizolarni hal qilish platformalari (ODR), sun'iy intellekt va blockchain kabi texnologiyalar zamonaviy nizolarni tezkor va samarali hal etish imkonini beradi. To'rtinchidan, preventiv diplomatiyani kuchaytirish: Mojarolar boshlanishidan oldin ularni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan erta ogohlantirish tizimlarini rivojlantirish kerak. Beshinchidan, mintaqaviy tashkilotlar va NNTlarning ishtirokini kengaytirish: Bu subyektlar orqali nizolarni joyida, tezkor va kontekstual yondashuv asosida hal qilish imkoni kengayadi. Oltinchidan, huquqiy bazani yangilash: Xalqaro huquq doirasida yangi konvensiyalar, ayniqsa ekologik va kiber sohalar bo'yicha, ishlab chiqilishi lozim. Yettinchidan, SDG-16 va BMT Xartiyasiga rioya qilish: Tinchlik, adolat va barqaror institutlarni rivojlantirish xalqaro nizolarni hal qilishda asosiy tamoyil bo'lib qoladi.

¹⁶ <https://www.securitycouncilreport.org/monthly-forecast/2025-07/peaceful-resolution-of-disputes.php>

Xulosa qilib aytganda, xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish prinsipining samaradorligini oshirish uchun uni zamonaviy muammolar va texnologiyalarga moslashtirish zarur. Taklif etilgan yondashuvlar bu prinsipni amalda mustahkamlash, global miqyosda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Xalqaro hamjamiyat bu borada birgalikda harakat qilishi, mavjud imkoniyatlarni birlashtirib, yangi tashabbuslarni ilgari surishi muhimdir. Faqat shu tarzda tinch, adolatli va barqaror xalqaro tartibga erishish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Hoxirgi zamon xalqaro huquqi (Xalqaro ommaviy huquq). Darslik. – T.. 2002.
2. Xalqaro huquq. Darslik. Ma’sul moharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva//Mualliflar jamoasi.- T.:TDYU nashriyoti, 2018
3. Odilkoriev, Ochilov. XOH darslik.pdf – Toshkent: Alisher Navoi nomli O‘zbekiston milliy kutubxonasining nashriyoti; Toshkent davlat yuridik instituti, 2007.
4. Xalqaro huquq. Darslik. Mas’ul muharrir y.f.n., prof. G.Yuldasheva //
5. Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2017.
6. Lukashuk I.I, Saidov A.X. Hozirgi zamon Xalqaro huquqi nazariyasi: Darslik – Toshkent, ”Adolat” , 2006

FOYDALANILGAN INTERNET MANBAALARI

1. <https://untreaty.un.org/>
2. <https://rm.coe.int/>
3. <https://www.un.org/>
4. <https://www.amerikaovozi.com/>
5. <https://kun.uz/>
6. <https://www.icj-cij.org/node>
7. <https://www.gazeta.uz>
8. <https://treaties.un.org>
9. <https://www.icj-cij.org>
10. <https://icsid.worldbank.org>
11. <https://www.globalr2p.org/>
12. <https://www.securitycouncilreport>
13. <https://www.diplomacyandlaw.com/post/peaceful-settlement-of-international-disputes>